RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT TARMOG‘INI RIVOJLANISHINI JAHON TAJRIBASI

Qudaybergenov Azamat Shamuratovich
Berdaq nomidagi QQDU Mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18859222

Annotatsiya. *Hozirgi kunda O‘zbekiston tub islohotlar va ularni chuqurlashtirish davrini boshdan kechirmoqda, ya’ni sifatli va mazmunli yangilanish jarayon-lari davom etmoqda. Islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni libe-rallashtirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash evaziga uzluksiz iqtisodiy o‘sishga erishishning dolzarb vazifasi hisoblanmoqda. Maqolada mamlakatimizda va jahonda iqtisodiy o‘sishda sanoat tarmog‘ining tutgan o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek sanoat tarmog‘ining rolining jahon tajribasi o‘rganligan.*

Kalit so‘zlar: *sanoat tarmog‘i, sement bozori, jahon iqtisodiyoti, jahon savdo bozori, import, eksport, sanoat siyosati, modernizatsiya.*

Аннотация: *В настоящее время Узбекистан переживает период фундаментальных реформ и их углубления, то есть происходят качественные и содержательные процессы обновления. На нынешнем этапе реформ неотложной задачей является достижение устойчивого экономического роста посредством либерализации экономики и обеспечение макроэкономической стабильности. В статье анализируется роль промышленного сектора в экономическом росте в нашей стране и в мире. Также изучается мировой опыт роли промышленного сектора.*

Ключевые слова: *промышленный сектор, цементный рынок, мировая экономика, мировой торговый рынок, импорт, экспорт, промышленная политика, модернизация.*

Abstract: *Uzbekistan is currently undergoing a period of fundamental and deepening reforms, meaning qualitative and substantive renewal processes are underway. At the current stage of reform, the urgent task is to achieve sustainable economic growth through economic liberalization and ensuring macroeconomic stability. This article analyzes the role of the industrial sector in economic growth in our country and globally. International experience on the role of the industrial sector is also examined.*

Keywords: *industrial sector, cement market, global economy, global trade market, import, export, industrial policy, modernization.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv va tariflarni bir tomonlama qo‘llash sharoitida dunyodagi ko‘plab sanoat korxonalari juda og‘ir davrda va juda og‘ir iqtisodiy vaziyatda ishlamoqda. Rivojlangan davlatlar tomonidan turli chora-tadbirlar va dasturlar ishlab chiqilganiga qaramay, bu salbiy holat saqlanib qolmoqda. Bozor munosabatlarining hozirgi sharoitida chuqur sifat o‘zgarishlari, yangi texnologiyalar va eng yangi texnikaga o‘tish, fan va texnikaning eng yangi yutuqlari asosida milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarini qayta jihozlash zarur. Shu bilan birga, muhandis va ishchilar uchun iqtisodiy va ijtimoiy qiziqishni yaratish va ijodiy ruhda ishlash muhim hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotining tuzilishi va uni rivojlantirish mexanizm-lari tubdan o‘zgarib borayotgan davrlarda voqealar dinamikasi, odatda, ular-ni tushunishga bag‘ishlangan statistik

ko‘rsatkichlar dinamikasidan ancha ol-dinda turadi. Natijada, yaqindagina ishonarli bo‘lib tuyulgan tushunchalar avvalgi mashhurlikni qayta tiklash uchun hech qanday imkoniyatsiz arxivga yuboriladi, voqelikdagi murakkab hodisalarning murakkab tushuntirish-lari esa shunchaki haqiqatning o‘zi o‘zgarganligi sababli unutiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sanoatni rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o‘rnining nihoyat darajada kengligi bilan doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Xususan, mavzu yuzasidan xorijlik olimlardan Yu.Rodionov, R.S.Porter, D. Deveryuks, B.Roberts, R.N. Nureevlar ilmiy yangiliklar yaratgan bo‘lsalar, mahalliy olimlardan B. S. Qalmuratov, A.Q. Bekbosынov, I. P. Najimov A.A.Ortыkov, X.Ishbutayeva, Sh.Nizomova, E.X.Maxmudov, M.Isoqovlar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishga muvaffaq bo‘lishgan. Xususan, A.Artikov “O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari”ga, M.P.Narziqulov “Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e’tibor tarkibiy o‘zgarishlarga qaratilganligi”ga, E.X. Maxmudov “Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo‘nalishlari birinchi navbatda byudjet, soliq, pul kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish”ga, bog‘liqliklariga alohida to‘xtalib o‘tishgan.

TADQIQOTDA QO‘LLANILGAN METODLAR

Maqolani yozish jarayonida rivojlangan mamlakatlarning innovatsion rivojlanishning nazariy va amaliy jihatlari taqqoslandi, shuningdek, ochiq statistika ma’lumotlarini tahlil qilish asosida taklif va tavsiyalar berildi. Umumiy ilmiy-tadqiqot usullari qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borgan tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, butun dunyoda sement mahsuloti eng ommaviy va keng tarqalgan qurilish materiallaridan hisob-lanib, u yoki bu davlatda ushbu bozorning rivojlanish omillaridan bo‘lib, undagi iqtisodiy va ijtimoiy omillarga bog‘liqdir, ya’ni aholi sonining ortib borishi, aholining bandligi va daromadlari, mamlakat iqtisodiyoti-ning o‘sishi, urbanizatsiyalashtirish sur’atlari, investitsiyalar hajmi va aholi uchun kreditlarni olish imkoniyalarining yaratilganligi va boshqalar bilan izohlanadi.

Shuni ta’kidlash joizki, sement asosiy qurilish materiali hisobla-nib, uni qo‘llash sohalari judayam kengdir. Uy-joylari va tijorat quri-lishlarini amalga oshirishda unda fundamentlar, devorlar va uzatmalarni qurishda keng foydalaniladi. Transport sohasida esa yo‘llar, ko‘priklar va aerodromlarni qurishda sementning o‘rnini hech narsa bosa olmaydi. Gidro-texnik qurilishlarni amalga oshirishda ham sement muhim rolni o‘ynab, plotinalar va portlarni qurishda keng foydalaniladi.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, dunyoda sement bozorining hola-tiga quyidagi omillar jiddiy ta’sir ko‘rsatadi (1-jadval). Ushbu jadval-dan ko‘rinib turibdiki, sement bozorining rivojlanishiga jiddiy ta’sir qiluvchi drayverlar bilan bir qatorda uni rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar ham mavjuddir.

1-jadval.

Dunyoda sement bozorining rivojlanib borishiga ta’sir qiluvchi omillar

Bozor drayverlari	Bozor cheklovlari
Urbanizatsiyalash va infratuzilmaning rivojlanishi:	**Rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o‘sishning sekinlashishi:**

rivojlanayotgan davlatlarda shaharlarning tezkorlik bilan o‘sishi uy-joylar, tijorat va jamoat qurilishlarida sementga bo‘lgan talabni rag‘batlantiradi. Hindiston, XXR va Yaqin Sharq davlatlaridagi davlat infratuzilma dasturlari ushbu bozorni o‘sishiga olib keladi.	**HVJning ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o‘sish faqaqt 1,4 % ni tashkil qiladi. Bunday holat qurilish sohasiga investitsiyalarni kiritishni sekinlashtiradi.**
Aholi sonining o‘sishi va shaharlarning kengayishi: 2035-yilga kelib planetamizdagi aholi soni 8,89 mlrd kishiga o‘sishi kutilmoqda (2025-yilda 8,01 mlrd bo‘ladi). Bu esa o‘z o‘rnida uy-joyga va shahar infratuzilmasiga bo‘lgan talabni oshiradi, hammadan ham Afrika va Osiyo davlatlarida yuqori bo‘ladi.	**Daromadi yuqori bo‘lgan davlatlar aholisining qarib borishi:** **Yaponiya va Yevropaning ayrim davlatlari mehnatga layoqatli bo‘lganlar sonining qisqarib borishiga duch kelib, bu esa o‘z o‘rnida uy-joyga bo‘lgan talabni pasaytiradi, infratuzilmalarni rivojlantirishni sekinlashtiradi va natijada ushbu hududlarda sementni sarf qilishni cheklay boshlaydi.**
Rivojlanayotgan davlatlarda qurilish sektorining rivojlanishi: Iqtisodiyoti yiliga o‘rtacha 3,7 % ga o‘sib kelayotgan rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti shahar infratuzilmasi, yotoqxona biznesi va ko‘chmas mulkka faol investitsiyalarni kiritadi.	**Energoresurslar narxiga bog‘liqlik:** **Sement sanoati ko‘mir, gaz va ohaktoshlarning narxiga bog‘lanib qolgan bo‘lib, ular o‘z o‘rnida turli geosiyosiy krizislar, sanksiyalar va logistik uzulishlar bosimi ostida qolib ketmoqda. Masalan, 2022-2024-yillarda energoresurslar narxining ortishi natijasida sementning tannarxini 15-20 % ga ortishiga olib keldi.**

Sement bozoridagi dinamika bir nechta bir-biriga qarama-qarshi bo‘l-gan omillarning ta’siri ostida shakllanib boradi. Bir tomondan rivojla-nib borayotgan davlatlardagi faol urbanizatsiyalashtirish, aholi sonining ortib borishi va masshtabli infratuzilmaviy loyihalar sementga bo‘lgan talabni mo‘tadil qilib turadi. Bunday holatlar hammadan ham Hindiston va XXRlarida ko‘zga tashlanib, ularda shaharlar infratuzilmasini rivoj-lantirish dasturlarini amalga oshirishda bu yaqqol ko‘rinib qolmoqda. Bosh-qa tomondan olib qaralganda, sement bozori muhim chegaralinishlarga duch kelmoqda, ya’ni iqtisodiy o‘sishning susayishi, Yaponiya va Yevropa davlatla-rida aholining qarib borishi va energoresurslar narxining ortib borishi sement tannarxiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, Osiyo davlatlarida qurilish ish-larining o‘sib borishi sementning dunyo bozoridagi asosiy drayveri bo‘lib qoladi. Hindiston, Indoneziya, Malayziya va Vyetnam davlatlarida urbani-zatsiyalashtirish jarayonlarining tezlashib ketishi ham qurilish ishlarini rivojlanayotgan mamlakatlarda yanada faollashishiga olib keladi.

XXRdagi qurilish bozoridagi hozirgi holat kuchmas mulk sektoridagi cho‘zilayotgan krizis, investitsiyalarning pasayishi va ortiqcha quvvatlar bi-lan izohlanib, sementga bo‘lgan talabga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi, lekin keyinchalik davlat darajasidagi infratuzilmaviy loyihalarni kengayishi o‘rta muddatda sementga talabni ushlab turishi ham mumkin bo‘ladi.

AQSHda iqtisodiyotning va aholi daromadlarining barqaror o‘sishi turar-joylarni qurish sur’atlarini o‘sish tendensiyalarini ushlab qoladi. Huddi shunday ijobiy tendensiyalar Yevropa

davlatlari uchun ham saqlanib qolishi mumkin bo‘lib, faqat ularda ushbu bozorning investitsiyalar hajmiga tez ta’sir qilishi ma’lum bir risklarni keltirib chiqarishi ham mum-kindir. Shuni ta’kidlash joizki, o‘rta muddatli istiqbollarda sement bo-zori asta-sekin o‘sishni saqlab qoladi. Tahlilchilarning fikricha, 2024-2035-yillar mobaynida yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati 0,8 % ni tashkil qiladi va bu esa bashorat qilinayotgan davrning oxiriga borib sement bozorining hajmi 4,3 mlrd tonnaga yetishi kuzatiladi. Sement bozorining o‘sib borishi asosan iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarga to‘g‘ri kelib, rivojlangan davlatlarda esa ehtimol stagnatsiya yoki sementni sarf qilish asta-sekinlik bilan qisqarib boradi.

Shuni ta’kidlash joizki, jahon savdo bozorida sementni eksport qi-lish unchalik yuqori darajada emas, ya’ni 2012-2024-yillarda dunyo ekspor-tida sement mahsuloti 2-4 % ni tashkil qilgan xolos. Sementni eksport qilish borasida eng yirik eksporterlar qatoriga Turkiya va Vyetnam davlat-lariga to‘g‘ri kelib, ularning har biri o‘zlarining ishlab chiqargan semen-tining 18 % va 14 % ni jahon bozoriga yo‘naltirishadi.[1]

Dunyoning iqtisodiy jihatdan eng yirik davlatlari o‘rtasidagi savdo munosabatlarining uzayib borayotgan keskinlashuvi va bojlarning ko‘tari-lishi munosabati bilan kelgusida jahon savdosi uchun jiddiy xavf tug‘il-moqda. Bu jahon iqtisodiyoti uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mum-kin, ya’ni investitsiyalarning sekinlashishi, iste’mol narxlarining oshishi va ishbilarmon doiralarning optimizmining pasayishida o‘z aksini topishi mumkindir. Bunday rivojlanish global ishlab chiqarish va sotish zanjir-larida, ayniqsa, Xitoy va AQSH o‘rtasidagi savdo zanjirlariga mustahkam o‘rnatilgan Sharqiy Osiyo mamlakatlari eksportchilari uchun jiddiy uzi-lishlarga olib kelishi mumkin. XXR va AQSHdagi iqtisodiy o‘sish sur’atla-rining pasayishi tovarlarga bo‘lgan talabning pasayishiga olib kelishi mumkin, bu esa Afrika va Lotin Amerikasidagi xom-ashyo eksportchilariga jiddiy ta’sir qiladi. Savdo nizolari, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti shaklla-nayotgan bir qator mamlakatlarda moliyaviy zaiflikni oshirishi xavfi ham mavjud. Import tovarlar narxining oshishi moliyalashtirish shartlarining qattiqlashishi va qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlarining yuqoriligi bi-lan birgalikda daromadlarning qisqarishiga olib kelishi va ayrim tarmoq-larda qarz inqirozini keltirib chiqarishi ham mumkindir.

Global moliyalashtirish sharoitlarining keskin kuchayishi ayrim joy-larda moliyaviy tangliklarga olib kelishi mumkin. Siyosiy noaniqlik va muayyan mamlakatlar duch kelayotgan qiyinchiliklarning kuchayishi oxirgi yillarda moliya bozorlarida bir qator keskin narx o‘zgarishlariga olib kel-di. Sarmoyadorlarning kayfiyatiga savdo munosabatlaridagi keskinlikning kuchayishi, qarzdorlikning yuqori darajasi, geosiyosiy tavakkalchiliklar-ning ortishi, neft bozoridagi voqealar va AQSHning kelgusidagi pul-kredit siyosatiga nisbatan kutilayotgan o‘zgarishlar ta’sir ko‘rsatoqda. Shu nuqtai-nazardan, moliyalashtirishning global shartlari muayyan darajada kuchaydi. Hozirgi noaniqlik vaziyatida har qanday kutilmagan voqealar yoki “kayfiyat”ning to‘satdan o‘zgarishi bozor narxlarining keskin pasayishiga va kapitalning tartibsiz qayta taqsimlanishiga olib kelishi mumkin. Foiz stavkalarining tez oshishi va dollarning sezilarli darajada mustahkam-lanishi bir qator mamlakatlarda ichki muammolar va moliyaviy qiyinchilik-larning kuchayishiga olib kelishi, bu esa qarz inqirozi xavfining oshishiga olib kelishi ham mumkin.

[1] Manba: Mirovoy rынok sementa. Marketingovoye issledovaniye: trendы, analiz i prognoz. Redaksiya 2025. Otchet kompanii INDEXBOX. Moskva. 2025 g., 76 s.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, 2024-yilda dunyo bo‘yicha sementni sarf qilish hajmi 1,6 % ga kamayib, 3985 mln. tonnani tashkil qilib, oxir-gi uch yildagi kamayish tendensiyasini saqlab qolmoqda (1-rasm). Shunga qaramasdan ushbu davrda sementni sarf qilish hajmi barqaror darajada qo-lib, 3,8-4,3 mlrd tonnani tashkil qilmoqda.



1.-rasm. Sement mahsulotlari bozorining hajmi, natural holatda (mln tonnada, % oldingi yilga nisbatan).[2]

Iqtisodiy integratsiyani kengaytirish asosida sementdan olinadigan foyda mamlakatlar o‘rtasida va ular ichida adolatli asosda taqsimlanmas-ligini tushunish tobora ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda sement savdosini liberallashtirish va moliyaviy liberallashtirishdan olinadigan foyda mamlakatlar ichida daromad va boylik tengsizligining kuchayishi, turli harakatlar uchun imkoniyatlarning kamayishi, ayrim hollarda esa milliy suverenitetga putur yetkazish sabablari sifatida tobora ko‘proq ko‘rib chiqilmoqda.

Qiymat ko‘rinishidagi holatiga qarasak, sementning jahondagi bozori 300 mlrd doll. gacha kamaydi (2023-yilga nisbatan -7,1 %) (1.2-rasm). Ushbu summa o‘zida ishlab chiqaruvchilar va importerlarning umumiy daromadini ifoda etib, unda logistikaga qilingan harajatlar, bilvosita soliqlar va savdo ustamalartni hisobga olmaydi. Ushbu bozorning maksimal hajmi 2022-yilga to‘g‘ri kelib (357 mlrd doll), keyinchalik ikki yillik pasayish kuza-tildi.[3]

[2] Manba: o‘sha joydan.

[3] Manba: Mirovoy rынok sementa. Marketingovoye issledovaniye: trendы, analiz i prognoz. Redaksiya 2025. Otchet kompanii INDEXBOX. Moskva. 2025 g., 76 s.



2-rasm. Dunyoda sement bozorining hajmi, qiymat ko‘rinishida (mlrd dollarda, % da oldingi yilga nisbatan).

Shuni ta’kidlash joizki, 2012-2024-yillar orasida o‘rtacha yillik sof o‘sish sur’ati qiymat ko‘rinishida XXRda 1,3 % ni tashkil qilgan. Qolgan yetakchi davlatlardan hisoblanmish Hindistonda +3,3 % ni, AQSHda esa +4,0 % ni tashkil qilgan.

Xalqaro hamkorlik va boshqaruv har qachongidan ham muhim bo‘lgan bir paytda ko‘p tomonlama tizim xavf ostida qolmoqda. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida kun tartibiga qo‘yilgan ko‘plab va-zifalar global xarakterga ega bo‘lib, jamoaviy va birgalikdagi harakat-larni talab etadi.

Tahllilarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, 2024-yilda XXR dunyoda sementni sarf qilish borasida eng katta bozor bo‘lib, uning sarf qilish hajmi 1896 mln tonnani tashkil qilib, bu natural ko‘rinishda 48 % ga to‘g‘ri keladi (1.3-rasm). Bunday katta hajmda sementni sarf qilish aholi sonining yirik-ligi va urbanizatsiya jarayonlarining tezkorlik bilan olib borilayotganligi natijasida qurilish ishlarining faol o‘sishiga olib kelishi bilan izoh-lanmoqda. Bundan tashqari XXR dunyoda sementni sarf qilish ko‘rsatkichi bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turgan Hindistonga (450 mln tonna, yoki 11,3 %) nisbatan to‘rt marotaba ortiq sarf qilmoqda. Ushbu reyting bo‘yicha AQSH-lari uchinchi o‘rinni egallab kelmoqda (109 mln tonna, ulushi 2,7 %). Qiymat nuqtai-nazaridan qaraydigan bo‘lsak, sementni sarf qilish borasida XXR 115 mlrd dollarlik bozor hajmi bilan yetakchilik qilib kelmoqda, ikkinchi o‘rinda Hindiston – 24,5 mlrd doll., uchinchi o‘rinda esa AQSHlari kelmoqda.



3-rasm. Davlatlar kesimida sementni sarf qilish bo‘yicha taqsimlanishi (2024-y., % da, natural ko‘rinish asosida).

XXR sement ishlab chiqarish bo‘yicha yuqori rivojlangan industriyaga ega va dunyoda uni eng ko‘p hajmda ishlab chiqaruvchi bo‘lib qolmoqda. Shunga qaramasdan, ushbu mamlakatda ham oxirgi yillarda qurilish sektorining o‘sish sur’atlari sekinlashganligi va uy-joylarga bo‘lgan talab ham tusha-yotganligi natijasida sementni sarf qilish darajasi pasayishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu davlatning sement bozori asosan o‘zining ishlab chiqa-ruvchilari hisobiga ta’minlanib, import qilinayotgan sementning hajmi judayam kam bo‘lib, u ham bo‘lsa uning sarf qilish hajmining 0,05 % ni tashkil qilmoqda xolos.

Xindistonning sement bozori yiliga 450 mln tonnaga to‘g‘ri kelib, ja-hon bozorining 11 % ni qamrab olmoqda va unda ham yuqoridagi kabi o‘xshash iqtisodiy hamda ijtimoiy jarayonlar bilan tavsiflanadi. Sementni sarf qilish hajmi bo‘yicha lider davlatlardan bo‘lib AQSH (109 mln tonna), Vyetnam (95 mln tonna), Eron (70 mln tonna), Braziliya (68 mln tonna), Turkiya (67 mln tonna), Rossiya (65 mln tonna), Indoneziya (64 mln tonna) hisoblanmoqda. Shuni ta’kidlash joizki, sementni sarf qilishning eng yuqori yillik o‘rtacha o‘sish sur’atlari 2007-2017-yillar orasida Osiyo dav-latlaridan hisoblanmish Vyetnam (+ 4,6 %) va Hindistonda (+ 4,4 %) kuzatildi.[4]

XXRda yuqorida qayd etilgan sanoat siyosatini amalga oshirish bosqich-larining ikkalasi ham kuzatilmoqda. Birinchi bosqichda eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilish uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratildi, ikkinchi, joriy bosqichda iqtisodiyot uchun ustuvor bo‘lgan tarmoqlarni tanlab qo‘llab-quvvatlash amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, investorlar bilan doimiy muloqot olib borilmoqda, iqtisodiyotning ochiqligi darajasini kengaytirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda, qonunchilik muhiti takomillashtirilmoqda.

XXRning turli hududlarida iqtisodiy zonalar (soliq solishning im-tiyozli rejimiga ega bo‘lgan maxsus investitsiya zonalari, iqtisodiy va tex-nik rivojlanish zonalari, eksport ishlab chiqarish zonalari va boshqalar) tashkil etilmoqda, rivojlanmagan mintaqalarga investitsiyalar iqtisodiy imtiyozlar bilan rag‘batlantirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, sement mahsuloti bozorini tahlil qilishda uning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatkichi asosida davlatlarni holatini baholash mumkindir (3-jadval). Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki davlatlar kesimida turlicha bo‘lib, yillar kesimida ham dinamika bir xil emas. 2024-yil yakunlari bo‘yicha aholi jon boshiga sarf qilingan sement mahsuloti XXRda 1330 kgni tashkil qilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich Hindistonda – 314 kg, AQSHda – 322 kg, Vyetnamda – 948 kg, Eron-da – 793 kg, Braziliyada – 312 kg, Turkiyada – 776 kg, Rossiyada – 452 kg, Indo-neziyada – 225 kgni tashkil qilmoqda. Aholi jon boshiga sement mahsu-lotini sarf qilishning yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati ham ushbu davlarda tur-licha bo‘lmoqda.

2-jadval.

Davlatlar kesimida aholi jon boshiga sementni sarf qilinishining holati (mln tonna, kg/yil)

[4] Manba: Mirovoy rынok sementa. Marketingovoye issledovaniye: trendы, analiz i prognoz. Redaksiya 2025. Otchet kompanii INDEXBOX. Moskva. 2025 g., 76 s.

Davlatning nomi	Sarf qilinishi, mln. tonn			Aholi soni, mln. kishi			Aholi jon boshiga sarf qilinishi, har bir kishiga kg.			Sarf qilishning yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati, %	Aholi jon boshiga sarf qilishning yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati, %
	2022	2023	2024	2022	2023	2024	2022	2023	2024	2012-2024	2012-2024
XXR	2 101	1 997	1 896	1 419	1 423	1 426	1 480	1 404	1 330	-1,2%	-1,7%
Hindiston	380	420	450	1 407	1 420	1 432	270	296	314	4,4%	3,3%
AQSH	117	114	109	335	337	339	350	339	322	2,7%	2,0%
Vyetnam	105	93,4	95,2	99,0	99,7	100	1 056	937	948	4,6%	3,7%
Eron	55,6	69,6	69,7	86,0	87,0	87,9	647	801	793	0,2%	-1,1%
Braziliya	63,7	66,9	68,1	215	217	218	296	309	312	-0,3%	-1,0%
Turkiya	58,2	64,4	67,0	85,6	86,0	86,3	680	749	776	2,1%	0,9%
Rossiya	61,0	62,9	64,9	144	144	144	424	437	452	0,0%	-0,0%
Indoneziya	62,5	65,6	63,9	279	282	284	224	233	225	1,5%	0,3%
Boshqalar	1 105	1 096	1 101	3 853	3 906	3 960	-	-	-	1,7%	n/a
Jami	4 108	4 051	3 985	7 923	8 001	8 077	518	506	493	0,4%	-0,7%

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, qurilish materiali sifatida sementga bo‘lgan talab keyingi yillarda ham ijobiy dinamikada saqlanib qolinadi (1.4-rasm). Bashorat qilinishicha, 2024-yildan 2035-yilgacha o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati +0,8 % ni tashkil qilib, 2035-yilga kelib uning hajmi 4,3 mlrd tonnani tashkil qiladi.



4-rasm. Dunyo sement bozorining bashorat qilinishi.

Sanoat tarmog‘i va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni muvofiqlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari sanoat va iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish tizimida davlatning investitsiya resurslarini samarali qayta taqsimlashni ta’minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдукаримов И.Т. ва бошқалар Корхона иқтисодий салоҳияти таҳлили. - Т.: Иқтисодиёт ва ҳудуд дунёси, 2003, - 256 б.
2. Калмуратов Б.С., Бекбосынов А. К Эффективность совершенствования управления инновационным развитием на промышленных предприятиях (на примере Республики Каракалпакстан).// Монография. – Ташкент: “METODIST NASHRIYOTI”, 2025. – 148 с.
3. Қалмуратов Б.С., Mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari//Qaraqalpaq mámleketlik universiteti, Ekonomika fakulteti “Qaraqalpaqstan Respublikası ekonomikasın turaqlı rawajlandırıwda jasıl ekonomikanıń ornı: bar bolǵan mashqalalar hám olardı sheshiw jolları” atamasında respublikalıq ilimiy-ámeliy konferenciya, 15-oktyabr 2025-jıl 241-243 betlar
4. Махмудов Э.Х., Ортиков А., Каримов Ф. Корхона иқтисодиётнинг асосий бўғини. / Ҳамкор. 2010 йил 7 февраль.
5. Нажимов И.П. Қурилиш материаллари ишлаб чиқариш корхоналарининг барқарор ривожланишини таъминлаш (Монография) //—Т.: ― Lesson Press, 2021.–141б. (ISBN 978-9943-7712-4-6)
6. Ортиков А.. Саноат иқтисоди. Дарслик. Т.: ТДИУ, 2009. 236 б.
7. Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы 1У-го Форума экономистов / отв. ред. М.П. Нарзикулов. Ташкент. Вак1паРгез$, 2012. С. 8.